



## **ILMIY TARJIMANING ASOSIY TUSHUNCHА VA TURLARI**

**Rashitkhodjayeva Aziza,  
O‘zDJTU 2- bosqich magistranti  
Ilmiy rahbar: Azzamov Y.R (PhD)**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada ilmiy texnik tarjimaning asosiylarini va turlari tahlil etiladi. Ilmiy texnik tarjima, nazariyasi, amaliyoti va uning turlari haqida fikrlar bildiriladi. Maqola ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish jarayonidagi muhim jihatlarni yoritadi, shuningdek, har bir turdagagi tarjimanining o‘ziga xos xususiyatlari va muammolarini ko‘rib chiqadi. Ilmiy texnik tarjimaning ahamiyati, zamonaliviy sharoitlarda uning roli va o‘ziga xos xususiyatlari ta’kidlanadi.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируются основные понятия и виды научного и технического перевода. Обсуждаются теория и практика научного и технического перевода, а также важные аспекты перевода научных и технических текстов. Подчеркивается значимость научного и технического перевода, его роль в современных условиях и его уникальные характеристики.

**ABSTRACT:** This article analyzes the main concepts and types of scientific and technical translation. It discusses the theory and practice of scientific and technical translation, as well as the important aspects of translating scientific and technical texts. The significance of scientific and technical translation, its role in modern contexts, and its unique characteristics are highlighted.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy tarjima, texnik tarjima, tarjima nazariyasi, terminologiya, muammolar, sohalar.

**Ключевые слова:** научный перевод, технический перевод, теория перевода, терминология, проблемы, области.

**Keywords:** scientific translation, technical translation, translation theory, terminology, issues/problems, fields.

**KIRISH.** Ilmiy texnik tarjima — bu ilmiy va texnik matnlarni bir tilidan boshqasiga o’tkazish jarayoni. Ushbu jarayonda tarjimon nafaqat so‘zlarni, balki ilmiy tushunchalarni ham to‘g’ri va aniq ifodalashga majburdir. Ilmiy texnik tarjima zamonaliviy ilm-fan va texnologiya rivojlanishi bilan bevosita bog’liq bo‘lib, bu sohalarda ma’lumotlarning tez va samarali almashinuviga uchun muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tarjima ingliz tilida o‘ziga xos leksik xususiyatlarga ega bo‘lib, maxsus



terminologiya, yangi atamalar bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi ilmiy tarjimaning asosiy tushunchasi, xususiyatlari va turlari o’rganiladi.

### **Ilmiy tarjimaning asosiy tushunchasi**

Ilmiy tarjima – bu ilmiy matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayoni bo‘lib, u fanning turli sohalaridagi bilimlarni boshqa madaniyat yoki tilda tushunarli shaklda yetkazib berishga qaratilgan. Bu tarjima turi nafaqat matnning tilini o‘zgartirishni, balki ilmiy tushunchalar, terminlar va izohlarning to‘g‘ri va aniq ifodalanishini ham talab qiladi.

V.P.Danilenkoning ta’kidlashicha, ilmiy tarjima deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili (fan,ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko 1977;8). Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so‘zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so‘z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi.

Ilmiy tarjima faqat lug‘aviy tarjima bilan cheklanmaydi; bu jarayonda tarjimon ilmiy tilning maxsus jihatlarini, mavzuga xos terminologiyani va aniq tushunchalarni ham nazarda tutishi lozim. Shuning uchun ilmiy tarjimon faqatgina tilni yaxshi bilishi bilan emas, balki tarjima qilinayotgan soha bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lishi kerak.

### **Ilmiy tarjimaning xususiyatlari**

Ilmiy texnik tarjima borasida bir qancha jahon va mahalliy lingvist olimlar izlanishlar olib borishgan. Bulardan ingliz tarjimashunos olimi Peter Newmark, semantik tarjima va kommunikativ tarjima o‘rtasidagi farqlarni o‘rgangan. U shuningdek, ilmiy tarjima bo‘yicha muhim izlanishlar olib borgan va ilmiy matnlarni tarjima qilishning turli yondashuvlarini o‘rgangan. U o‘zining “Semantic and Communicative Translation”<sup>1</sup> (Semantik va kommunikativ tarjima)ga bag’ishlangan ilmiy ishida ilmiy matnlarni tarjima qilishdagi usullarga to’xtalib o’tgan. Newmark ilmiy tarjimada anqlikni saqlash eng muhim talab deb biladi. Ilmiy matnlarning maqsadi ilmiy haqiqat va bilimlarni ifodalashdir, shuning uchun

1

[https://www.researchgate.net/publication/367536538\\_SEMANTIC\\_AND\\_COMMUNICATIVE\\_TRANSLATION\\_IN\\_CHRONICLE\\_OF\\_A\\_BLOOD\\_MERCHANT](https://www.researchgate.net/publication/367536538_SEMANTIC_AND_COMMUNICATIVE_TRANSLATION_IN_CHRONICLE_OF_A_BLOOD_MERCHANT)

tarjimon bunday matnlarda mavhumlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Newmarkning fikricha, ilmiy matnlarda uslubiy xususiyatlar ham katta rol o'ynaydi. Ilmiy uslub quruq va rasmiy bo'lishi mumkin, lekin u maqsadli auditoriyaga mos ravishda aniq va lo'nda bo'lishi kerak. Shuningdek, u ilmiy matnlarda odatda passiv zamon va murakkab gap tuzilmalari ko'p ishlatilishini ta'kidlaydi, va tarjimachi bu uslubni saqlashi kerak deb aytadi<sup>2</sup>. Susan Bassnett ilmiy tarjimada aniqlik va betaraflik muhim o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Bassnettning fikricha, ilmiy tarjimaning asosiy qiyinchiliklaridan biri terminologik birxillikni saqlashdir. Ilmiy tarjimonlar doimo maxsus sohalarga xos terminlardan foydalanadi, va ushbu terminlarni aniq, mos shaklda tarjima qilish kerak. <sup>3</sup>Bassnett ilmiy tarjimani informativ (ma'lumot beruvchi) tarjima turiga kiritadi, bu degani, tarjimon asosan matn orqali aniq va to'liq ma'lumotni yetkazishga intiladi.

Yana bir zamonaviy tarjimashunoslik sohasida muhim rol o'ynagan Amerikalik lingvist olim, Lawrence Venuti ham ilmiy matnlarni tarjima qilishda qanday yondashuv ishlatilishi lozimligi haqida tadqiqotlar olib borgan. U ilmiy tarjimada matnning asl tilidagi o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish kerakligini ta'kidlaydi<sup>4</sup>. Venuti shuningdek ilmiy tarjima jarayoniga "yotlash" (foreignization) va "mahalliylashtirish" (domestication) tushunchalarini olib kirgan.

A. Madrahimov ilmiy tarjimada ilmiy matnlarning uslubiy va grammatick moslikni saqlash muhimligini ta'kidlagan. U, tarjimon ilmiy matnni tarjima qilayotganda original manba tilidagi uslubiy xususiyatlarni milliy tilga to'g'ri moslashtirishga e'tibor qaratishi lozimligini aytadi. Abdulaziz Shodmonov, o'zbek tilidagi ilmiy texnik terminologiyaning rivojlanishi va tarjima jarayonidagi muammolarni o'rganishga bag'ishlangan bir qator asarlar yozgan. Uning "Ilmiy texnik terminologiyaning o'zbekcha ta'rifi"<sup>5</sup> nomli kitobi terminologiyaning muhim aspektlariga e'tibor qaratib, unda o'zbek tilidagi ilmiy va texnik terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning rus va boshqa tillardan tarjima qilinishidagi muammolar va yechimlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Ilmiy tarjimada terminlar alohida o'rın tutadi. Termin ta'rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko'pdan-ko'p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta'riflarda

<sup>2</sup> Peter Newmark "A Textbook of Translation" (1988)

<sup>3</sup> Susan Bassnett "Translation Studies" (1980)

<sup>4</sup> Domestication and Foreignization in Translation Studies. Lawrence Venuti. Frank & Timme GmbH Verlag für wissenschaftliche Literatur Berlin 2012.

<sup>5</sup> "Ilmiy texnik terminologiyaning o'zbekcha ta'rifi" 1997 yil. O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti

termin maxsus ilmiy texnikaviy tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida tavsiflanadi. O.Vinokurning fikricha, termin - har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o‘z-o‘zidan, stixiyali tarzda paydo bo‘lmaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi. A.S.Gerdning mulohazasiga ko‘ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to‘laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma’noga ega tabiiy va sun’iy til birligi, ya’ni so‘z yoki so‘z birikmasidir<sup>6</sup>. O.S.Axmanovaning ta’kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o‘z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya’ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so‘ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta’riflashning mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta’rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so‘z boyligidagi o‘rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug‘aviy birlıklarning alohida turi tarzida qaralishiga e’tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo‘llanishining bir ko‘rinishi, degan g‘oyani ilgari suradi<sup>7</sup>.

### **Ilmiy tarjimaning turlari**

Ilmiy tarjima keng qamrovli bo‘lib, u turli sohalarni qamrab oladi va bu tarjima matnning murakkabligi, maqsadi va uslubiga qarab farq qilishi mumkin. Ilmiy tarjimaning turlari haqida ko‘plab lingvistlar va tarjimashunoslar turli fikrlar bildirgan. Peter Newmark o‘zining "A Textbook of Translation" asarida ilmiy tarjimani informativ tarjima sifatida ko‘rib chiqadi. U ilmiy tarjimani quyidagi turlarga ajratgan: 1. Tabiiy fanlar va texnika tarjimasi: Bu tarjima tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) va texnik matnlarni o‘z ichiga oladi. 2. Ijtimoiy fanlar tarjimasi: Bu turdagи tarjima huquq, iqtisodiyot, tarix, sotsiologiya kabi sohalarni qamrab oladi. 3. Tibbiyot tarjimasi: Tibbiy matn va nutqlarning tarjimasi ko‘pincha maxsus bilimlarni talab qiladi, chunki noto‘g’ri tarjima sog‘liqqa ta’sir qilishi mumkin<sup>8</sup>. Susan Bassnett ilmiy tarjimani funktsional tarjima deb ataydi va quyidagi turlarni ajratib ko‘rsatadi: <sup>9</sup>1. Texnik tarjima: Bunda matnning texnik jihatlari asosiy o‘rinda turadi. Texnik ma'lumotlar anqlik bilan tarjima qilinishi kerak, shuningdek,

<sup>6</sup> Gerd 1991;1-4

<sup>7</sup> Gak 1972;68 -71

<sup>8</sup> Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

<sup>9</sup> Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.

sohaning terminologiyasi diqqat bilan tanlanadi. 2. Akademik ilmiy tarjima: Ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va ilmiy hisobotlar kabi matnlar bu turga kiradi. M. Yuldashev: U ilmiy tarjimaning ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar va texnik sohalarga bo’lgan<sup>10</sup>. Komissarov ilmiy tarjimani pragmatik jihatlari bo'yicha turlarga ajratadi. U ilmiy matnning maqsadiga qarab, quyidagi turlarni keltiradi<sup>11</sup>: 1. Popular ilmiy tarjima: Ilmiy matnlarni keng ommaga tushunarli qilib tarjima qilish. Bunda terminologiya sodda qilib beriladi. 2. Maxsus ilmiy tarjima: Bu turdagи tarjima faqat maxsus bilimlarga ega bo'lgan kishilar uchun mo'ljallangan. Bunda terminologiya va ilmiy tushunchalar o'zgartirilmaydi va aniq ifodalanadi.

Ibrohim Haqqulov va Turg'unqul Qahhorovlar ilmiy va texnik tarjima o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib, ilmiy matnlardagi atamalarni milliy tilga to'g'ri moslashtirish masalalarini ko'rib chiqishgan.

### TAKLIF VA XULOSALAR:

Xulosa qilib aytganda, ilmiy tarjima ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. U xalqaro hamkorlik, ilmiy bilimlarning global darajada tarqalishi va ilmiy kashfiyotlarning umumiy madaniyatga qo'shilishini ta'minlaydi. Ilmiy tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimonlar nafaqat til bilimiga, balki tarjima qilinayotgan soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Shunday qilib, ilmiy tarjimaning turi va yo'nalishiga qarab, u aniq terminologiya, to'g'ri uslub va maxsus bilim talab etadi. Ilmiy-texnik atama va terminlarni tarjima qilishda ma'lumotlarni va ma'nolarni manbaa tilidan tarjima tiliga o'girishdagi muammolar bir qancha jahon va mahalliy lingvistlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ishlari tillar va madaniyatlar o'rtasida muloqot va bilim almashishni yaxshilashga, texnologiya va ilg'or tajribalar sohasidagi yutuqlarga yo'l ochib, sohaning murakkabliklarini yoritishda yordam beradi. Shuningdek, ilmiy texnik terminlar tarjimasidagi muammolarni va terminlarni tarjima qilish usullarini o'rganish tarjimaning tinglovchi uchun aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

# Research Science and Innovation House

<sup>10</sup> Yuldashev, M. (2020). Ilmiy tarjima: nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

<sup>11</sup> Komissarov, V. N. (1990). The Theory of Translation: Theoretical and Practical Aspects. Moscow: Higher School.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azzamov Y.R. “Sharq tillarini o‘qitishning dolzARB masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24 ISSN 2181-1784.
2. Azzamov Y.R. “Terminlar tarjimasining nazariy asoslari”. Sharq tillarini o‘qitishning dolzARB masalalari, IAK VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 24, ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947| ASI Factor = 1.7, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6653731> 2022 MJI, M:OHb. www.oriens.uz- 5. 518-531.
3. Abdullayeva Sh.N. G‘aznachilik sohasida qo‘llanadigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz, o‘zbek, rus tillari misolida) Avtoref. ped. nauk.–T.,2018. – 26 b.
4. Arnold I.V. Zamonaviy ingliz tilining leksikologiyasi / I.V. Arnold. - M . 2003
5. Baranova L.A. Texnik tarjima asoslari (elektrotexnika) Sankt-Peterburg - 1995 yil
6. Borisova L.I. Ilmiy-texnik adabiyotlarni tarjima qilishdagi leksik qiyinchiliklar. / L.I. Borisova. - M.: VCP, 1999 yil.
7. Borisova L.I. Ilmiy-texnik matnlarda neologizmlarning ingliz tilidan rus tiliga tarjimasi. / L.I. Borisova. - M.: VCP, 2007 yil
8. [https://www.researchgate.net/publication/367536538\\_SEMANTIC\\_AND\\_COMMUNICATIVE\\_TRANSLATION\\_IN\\_CHRONICLE\\_OF\\_A\\_BLOOD\\_MECHCHANT](https://www.researchgate.net/publication/367536538_SEMANTIC_AND_COMMUNICATIVE_TRANSLATION_IN_CHRONICLE_OF_A_BLOOD_MECHCHANT)
9. Peter Newmark “A Textbook of Translation” (1988)
10. Susan Bassnett "Translation Studies" (1980)
11. Domestication and Foreignization in Translation Studies. Lawrence Venuti. Frank & Timme GmbH Verlag für wissenschaftliche Literatur Berlin 2012.
12. "Ilmiy texnik terminologiyaning o'zbekcha ta'rifi" 1997 yil. O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti
13. Gerd 1991;1-4
14. Gak 1972;68 -71
15. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
16. Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.
17. Yuldashev, M. (2020). Ilmiy tarjima: nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
18. Komissarov, V. N. (1990). The Theory of Translation: Theoretical and Practical Aspects. Moscow: Higher School.